



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

18 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 18, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 18, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Xabibullayeva Dilfuza Kuanishbay qizi DAVLAT XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY MAQOMI.....	5
2. Халилова Нигорахон Акмалжон кизи РОЛЬ СВОБОДЫ СЛОВА В МЕХАНИЗМЕ КОНТРОЛЯ НАД ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ.....	12
3. Baratov Mirodiljon Khomudzhonovich, Khakimov Ravshan Tulkunovich, Akramxodjaev Bori Toxtaxodjaevich ACCESSION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO THE WORLD TRADE ORGANIZATION AND CURRENT ISSUES OF CYBER PROTECTION OF THE AUTOMOTIVE INDUSTRY OF UZBEKISTAN.....	19
4. Фахриддинов Аловуддин Фахриддинович КИССАВУРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ФОШ ЭТИШГА ОИД АЙРИМ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ.....	26
5. Рузиназаров Шухрат Нуралиевич ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: МИРОВЫЕ ОРИЕНТИРЫ И ОПЫТ СТРАН ЦАРЭС И ОТГ.....	34
6. Давлятов Валишер Хакимжанович АДВОКАТЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНИ: АҲАМИЯТИ, ЗАРУРАТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	58
7. Рустамов Нодирбек Илхомович ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВ БОСҚИЧИДА ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ ЎТКАЗИШ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	65
8. Ametova Nurjamal Qudaybergenovna HARBIY YOКИ MAXSUS UNVONDAN MAHRUM ETISH TARZIDAGI QO‘SHIMCHA JAZO TURINI TA‘YINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	74
9. Садуллаев Жахонгир Джамshedович АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ҲУЖЖАТЛАРНИ ҚАЛБАКИЛАШТИРГАНЛИК, СОТГАНЛИК ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	80
10. Матжанов Илхам Адилбаевич ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВДА ЖИНОЯТ ҲАҚИДА ОАВ ДА ТАРҚАЛГАН ХАБАР ВА МАЪЛУМОТЛАРНИ ТЕКШИРИШНИНГ ПРОЦЕССУАЛ АҲАМИЯТИ.....	88
11. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОРРУЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	95
12. O‘rinova Dilshoda Adxamovna AYOLLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI, UNI VUJUDGA KELITIRUVCHI SHART- SHAROITLAR.....	108




12.00.08-УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Ametova Nurjamal Qudaybergenovna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti doktoranti
E-mail: nurjamal0652@gmail.com

**HARBIY YOKI MAXSUS UNVONDAN MAHRUM ETISH TARZIDAGI QO‘SHIMCHA
JAZO TURINI TAYINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

For citation: Ametova Nurjamal Kudaybergenovna. SPECIFIC FEATURES OF ASSIGNING AN ADDITIONAL TYPE OF PUNISHMENT IN THE FORM OF DEPRIVATION OF MILITARY OR SPECIAL TITLE. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 3, pp.74-79

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15158659>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo‘shimcha jazoni tayinlashning huquqiy asoslari, sud amaliyotidagi o‘ziga xos jihatlari hamda mazkur jazo chorasi bilan bog‘liq cheklovlar tahlil qilingan. Jinoyat qonunchiligida ushbu jazoning qo‘llanilish mezonlari, uni asosiy jazoga qo‘shimcha ravishda tayinlash tartibi va huquqiy oqibatlari keng yoritilgan. Shuningdek, sud tomonidan ushbu jazoni belgilashda aybdorning shaxsiy xususiyatlari, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarining inobatga olinishi zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat qonunchiligi, jinoyat kodeksi, qo‘shimcha jazo, harbiy unvon, maxsus unvon, davlat mukofatlari, sud amaliyoti, jazo.

Аметова Нуржамал Кудайбергеновна,
Докторант Каракалпакского государственного
университета имени Бердаха
e-mail: nurjamal0652@gmail.com

**ОСОБЕННОСТИ НАЗНАЧЕНИЯ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ВИДА НАКАЗАНИЯ В
ВИДЕ ЛИШЕНИЯ ВОИНСКОГО ИЛИ СПЕЦИАЛЬНОГО ЗВАНИЙ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются правовые основания назначения дополнительного наказания в виде лишения воинского или специального звания, особенности судебной практики и ограничения, связанные с этой мерой наказания. Критерии применения этого наказания, порядок его назначения в дополнение к основному наказанию и его правовые последствия широко освещены в уголовном законодательстве. Суд также обосновал необходимость учета личных особенностей виновного, степени общественной опасности преступления и принципов социальной справедливости при определении данного наказания.

Ключевые слова: уголовное законодательство, уголовный кодекс, дополнительное наказание, воинское звание, специальное звание, государственные награды, судебная практика, наказание.

Ametova Nurjamal Kudaybergenovna,

Doctoral student of Karakalpak State University named after Berdakh

E-mail: nurjamal0652@gmail.com

SPECIFIC FEATURES OF ASSIGNING AN ADDITIONAL TYPE OF PUNISHMENT IN THE FORM OF DEPRIVATION OF MILITARY OR SPECIAL TITLE

ANNOTATION

This article analyzes the legal grounds for assigning additional punishment in the form of deprivation of military or special rank, specific aspects of judicial practice, and restrictions related to this punishment measure. The criteria for the application of this punishment, the procedure for its imposition in addition to the main punishment, and its legal consequences are widely covered in criminal legislation. The court also substantiated the need to take into account the personal characteristics of the guilty party, the degree of social danger of the crime, and the principles of social justice when determining this punishment.

Keywords: criminal legislation, criminal code, additional punishment, military rank, special rank, state awards, judicial practice, punishment.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi jinoiy jazolar tizimi o‘z tarkibiga ko‘ra turli xil va murakkab tuzilishga ega bo‘lib, sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda asosiy va ayrim vaqtlari asosiy jazo bilan birgalikda qo‘shimcha jazoni ham tayinlaydi.

Jazo – jinoyatchilikni nazorat qilish, huquqiy tartibotni mustahkamlash hamda jinoyat huquqi funksiyalarini amalga oshirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. U shaxsning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni va boshqa ijtimoiy qadriyatlarini jinoiy tajovuzdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar tizimidir.

Davlat tomonidan qo‘llaniladigan jazo choralari, bir tomondan, huquqbuzarlarga nisbatan adolatni tiklash, ularning javobgarligini ta‘minlash, ikkinchi tomondan esa, umumiy va xususiy profilaktika choralari amalga oshirishga xizmat qiladi[1, 132-b].

Jazo nafaqat jazolash vositasi, balki jinoyatchilikning oldini olish, shaxsni tuzatish va jamiyatga qayta integratsiya qilishning muhim mexanizmi hamdir. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsga nisbatan jazo davlat nomidan tayinlanadi[2, 92-b]. Jinoiy jazolar tizimi o‘z tarkibiga asosiy jazolar bilan bir qatorda, JKning 43-moddasida ko‘rsatilgan qo‘shimcha jazoni, shuningdek ham asosiy, ham qo‘shimcha tarzda qo‘llaniladigan jazoni oladi. Qo‘shimcha jazolarni tayinlash o‘ziga xos ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki ular o‘ziga xos yuridik tabiatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasi 2-qismiga ko‘ra, mahkumlarga harbiy yoki maxsus unvondan mahrum etish tarzidagi qo‘shimcha jazo ham qo‘llanilishi mumkinligi ta‘kidlangan. Jinoyat qonunchiligida belgilangan jazolar tizimida yuqorida ko‘rsatilgan qo‘shimcha jazodan tashqari yana bitta jazo turi mavjud. Bu jazo muayyan huquqdan mahrum qilishdir. U ham asosiy, ham qo‘shimcha jazo tarzida qo‘llanilishi belgilangan.

Jinoyat qonunida qo‘shimcha jazo tushunchasining to‘liq ta‘rif berilmagan. Bu kamchilik ko‘p jihatdan jinoyat huquqi fani bilan to‘ldiriladi. Jinoyat huquqi nazariyasida qo‘shimcha jazo deganda, jinoyat qonunida nazarda tutilgan, sud tomonidan asosiy jazoga qo‘shimcha ravishda qo‘llaniladigan davlat majburlov chorasini tushunish qabul qilingan. Jumladan, qonun chiqaruvchi va sudlar ko‘pincha asosiy jazolarni qo‘llash bilan aynan jazoning maqsadiga erishish mumkin, deb hisoblaydilar. Qo‘shimcha jazolar esa, yordamchi xarakterga ega va qo‘llanilgan davlat majburlovi

choralari o'ziga xos tarzda yordam beradi. Qo'shimcha jazolar alohida qo'llanilishi mumkin emas, u faqat asosiy jazoga qo'shimcha ravishda qo'llaniladi[3, 420-b].

Albatta, bu qo'shimcha jazo tushunchasining yagona ta'rifi emas, balki eng maqbul ta'riflardan biridir, chunki u jinoiy jazolar tizimida qo'shimcha jazolarning yordamchi funksional roliga urg'u beradi. Buni ayrim mualliflarning qo'shimcha jazo turlari tushunchasini ta'riflashda faqatgina ularning mustaqil ravishda tayinlanishi mumkin emasligini ko'rsatish bilan cheklanishlari ham tasdiqlaydi[4, 374-b]. Bu qo'shimcha jazolar tushunchasini aniqlashda juda muhim nuqta bo'lib, ularning yuridik tabiatining o'ziga xosligini ushbu jazo turini tayinlashning xususiyatlari bilan bog'laydi. Shu sababli, aybdor shaxsga qo'shimcha jazo tayinlashning asosiy sharti aynan o'sha shaxsga nisbatan asosiy jazo tayinlanishi hisoblanadi.

Qo'shimcha jazolarning asosiy jazolardan muhim farqi shundaki, ular O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismida ko'zda tutilgan aniq jinoyatlar tarkibining sanksiyalarida mavjud emas. Shu sababli, qo'shimcha jazo tayinlashning me'yoriy asosi faqat Jinoyat qonunchiligining Umumiy qism qoidalari, aniqrog'i JK 45 va 52-moddalaridan iborat. Afsuski, hozirgi kunda na O'zbekiston jinoyat qonunida, na sud amaliyotida qo'shimcha jazolar tayinlash bo'yicha batafsil yoritilgan tavsiyalar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"[5]gi 1-sonli qarorining 40-48 bandlari qo'shimcha jazolarni qo'llashga taalluqlidir.

Mazkur Plenum qarorida qo'shimcha jazo choralarining yangi jinoyatlar sodir etilishi oldini olishda katta ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, sudlarga hukm chiqarish paytida asosiy jazo bilan birga tegishli qo'shimcha jazo qo'llash masalasini ham muhokama qilish tavsiya qilingan.

Shuningdek, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo shaxs aybdor deb topilgan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasi sanksiyasi doirasida tayinlanadi. Agar muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasi sanksiyasida nazarda tutilmagan bo'lsa, u JK 45-moddasida belgilangan asoslar va doirada, qabul qilingan qaror hukmda asoslantirilgan holda qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilib o'tilgan.

Bevosita qo'shimcha jazoga kelsak, uni tayinlashga qo'yiladigan eng muhim talablar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 52-moddasida nazarda tutilgan. Shunday talablardan biri aybdor shaxs tomonidan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi hisoblanadi. Bu harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlashning rasmiy asosi hisoblanadi, og'ir va o'ta og'ir jinoyat tushunchasi JK 15-moddasining 4 va 5-qismlarida to'liq belgilangan.

Qo'shimcha jazo tayinlashda aybdorning shaxsini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, bu ayblanuvchi shaxs haqiqatan ham sud uni mahrum qilmoqchi bo'lgan tegishli maxsus, harbiy yoki faxriy unvonga va davlat mukofotiga ega bo'lishi lozimligida namoyon bo'ladi. Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxsni, sud o'zining ayblov hukmini chiqarish vaqtiga nisbatan kelgusida, hatto eng yaqin kelajakda ham olishi mumkin bo'lgan maxsus, harbiy yoki faxriy unvondan yoxud davlat mukofotidan mahrum etishi mumkin emas.

Qo'shimcha jazo tayinlashda aybdorning shaxsi to'liq hisobga olinishi uchun uning yoshi ham e'tiborga olinishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 81-moddasi 1-qismida belgilangan jazolar ro'yxatida maxsus, harbiy yoki faxriy unvon hamda davlat mukofotlaridan mahrum qilish jazosining mavjud emasligi ushbu jazoni 18 yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llash imkoniyatini istisno qiladi. Shu sababli, agar voyaga yetmagan shaxs davlat mukofotiga ega bo'lsa va jinoyat sodir etsa, sud unga ushbu qo'shimcha jazoni tayinlay olmaydi. Bunga asos sifatida JK 81-moddasining 2-qismi keltiriladi, unga ko'ra, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga qo'shimcha jazo choralari qo'llash taqiqlangan.

Aybdorning shaxsini inobatga olgan holda, sud jazo tayinlashda, tabiiyki, asosan sud majlislarida aybdorning qoldirgan taassurotiga tayanadi. Biroq, bunda sud faqat subyektiv taassurot bilan cheklanmay, aybdorning shaxsini tashkil etuvchi barcha muhim omillar – biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarning butun majmuasini ham hisobga olishi lozim. Xususan, jinoyat sodir etgan shaxs faol ishtirok etgan ijtimoiy munosabatlar ham tahlil qilinishi kerak. Faqat shu tarzda aybdorning

shaxsini baholash xolis va asosli bo‘ladi, ya’ni dastlabki tergov hamda sud tergovi jarayonida to‘plangan faktik va huquqiy ma’lumotlarga asoslanadi.

Afsuski, amaliyotda sudlar ko‘pincha bu talabga yetarlicha e’tibor qaratmay, ayblov hukmida jazo turi va miqdorini belgilashda aybdorning shaxsi inobatga olinganligi haqida yuzaki bayonot bilan cheklanmoqdalar. Vaholanki, adolatli jazo tayinlash uchun aybdorning shaxsiga oid muhim jihatlar va ijtimoiy munosabatlar tanlangan jazo turi hamda miqdori bilan uyg‘unlashishi lozim.

Jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish shaklidagi jazolarni tayinlashda esa sud aybdorning jamoatchilik orasidagi taniqliligini, uning ijtimoiy va lavozim mavqeini, atrofdagilar oldidagi obro‘cini, davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan bog‘liqligini, shuningdek, ishbilarmonlik doirasidagi nufuzini ham e’tiborga olishi zarur. Bunday yondashuv jazoni individuallashtirish tamoyilini ta’minlash hamda adolatli sud qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish o‘z mohiyatiga ko‘ra bir martalik jazo hisoblanadi va boshqa ayrim jazo turlaridan, masalan, ozodlikdan mahrum qilishdan farqli ravishda aniq miqdoriy ko‘rsatkichlarga ega emas. Shu bois, ushbu jazo turini tayinlashda mazkur xususiyat inobatga olinishi lozim.

Jinoyat sodir etgan shaxs sud qarori bilan harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish faqat to‘liq mahrum etilishi mumkin, qisman cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ushbu jazo turi yoki qo‘llaniladi, yoki umuman tayinlanmaydi. Biroq, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosi ma’lum bir chegaraga ega bo‘lib, sud aybdorni barcha maxsus unvonnan yoki davlat mukofotlaridan yoki ularning ayrimlaridangina mahrum qilishga haqli. Ushbu holat ayblov hukmida aniq ko‘rsatilishi kerak.

Shuningdek, sud aybdorga bir vaqtning o‘zida bir nechta qo‘shimcha jazo choralari, masalan, harbiy unvondan va bir yoki bir nechta davlat mukofotlaridan mahrum qilishni belgilashi mumkin. Biroq, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazolarini tayinlashda sud Jinoyat kodeksining 52-moddasida belgilangan huquqiy cheklovlarni kengaytirib talqin qilishga haqli emas.

Shu sababli, sud aybdorni ilmiy daraja va ilmiy unvondan mahrum etishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 52-moddasida ko‘rsatilmagan boshqa unvon va mukofotlardan – xorijiy davlatlar mukofotlari, sport va professional unvonlardan mahrum qilishga ham sud haqli emas.

Alohida ta’kidlash joizki, aybdor shaxsni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish uni kelajakda ushbu unvonlar, darajalar va mukofotlarni olish huquqidan cheklamaydi. Garchi amaliyotda, masalan, "Do‘stlik" ordenidan mahrum qilingan shaxsning oradan uzoq vaqt o‘tgach ham uni qayta qo‘lga kiritishi ehtimoldan yiroq ko‘rinsa-da, bunday holat yuz berishi mumkinligi istisno etilmaydi[6, 79-b].

Shuningdek, aybdorning keyinchalik oqlanishi ehtimoli ham mavjud. Agar shaxsга nisbatan chiqarilgan ayblov hukmi bekor qilinsa, sud tomonidan tortib olingan unvonlar, darajalar va mukofotlar o‘z-o‘zidan unga qaytarilishi lozim.

Aybdor shaxsni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosi sudning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lsa-da, ushbu huquqdan foydalanishda sud to‘liq erkinlikka ega emas. Jinoyat kodeksining 52-moddasiga muvofiq, bunday jazo chorasini qo‘llash faqat aybdor og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan taqdirda mumkin.

Sud ushbu jazoni tayinlashda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsiy xususiyatlari, jamiyatdagi mavqei hamda sodir etilgan jinoyatning huquqiy va axloqiy oqibatlarini har tomonlama chuqur tahlil qilishi lozim. Xususan, agar aybdorning unvoni yoki davlat mukofoti unga jamoat oldida yuqori nufuz va ishonch bergan bo‘lsa, sud ushbu ishonchning suiiste’mol qilinganligini e’tiborga olishi zarur.

Bundan tashqari, sud bunday jazoning kelgusidagi natijalarini ham hisobga olishi kerak. Masalan, agar aybdorning jamiyatdagi mavqeidan kelib chiqib, uning unvon yoki mukofotdan mahrum qilinishi jamoatchilik orasida muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etsa, sud qarorining adolatligi va asoslanganligi yanada muhim o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, qo‘shimcha jazo tayinlash bo‘yicha jinoyat qonunida ko‘rsatilgan shartlarni hisobga olgan holda, sud ko‘rib

chiqilayotgan jazo turlarini aybdorga nisbatan qo‘llash to‘g‘risidagi qarorini qabul qilishda boshqa jihatdan erkin hisoblanadi.

Sudning erkin irodasi bu holda qo‘shimcha jazo tayinlash foydasiga ma‘lum bir qaror chiqarish bo‘yicha ichki mulohaza erkinligida va sud hukmida qayd etilgan ushbu qarorni ta‘minlovchi tegishli yuridik harakatlarni amalga oshirish erkinligida namoyon bo‘ladi. Sud tomonidan qo‘shimcha jazo tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilishning sabablari odil sudlov manfaatlarini iloji boricha to‘liq ta‘minlash zarurati bilan izohlanadi. Shaxsiy xarakterdagi har qanday sabablarni sudning aybdorga nisbatan noxolis munosabati sifatida talqin qilish mumkin.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosini sud hukmida ko‘rsatish jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan shaxs mahrum qilinayotgan unvonlar, darajalar va mukofotlarni aniq belgilashga yordam beradigan individual belgilarni sanab o‘tish orqali amalga oshiriladi. Bu zarur, chunki sud aybdorni harbiy yoki maxsus unvondan va davlat mukofotlaridan mustaqil ravishda mahrum qila olmaydi[8-10], balki buni sud hukmining nusxasi asosida mahkumga unvon yoki mansab bergan yoxud uni davlat mukofoti bilan taqdirlagan mansabdor shaxs amalga oshiradi. Shu sababli, mansabdor shaxs aybdor shaxsning aynan qaysi unvonlari, darajalari yoki mukofotlari bo‘yicha ularni mahrum qilish to‘g‘risidagi yozuvni tegishli hujjatlarga kiritishi kerakligini to‘liq bilishi muhimdir.

Aybdor shaxsga unvon yoki mansab berilgan yoxud u davlat mukofoti bilan taqdirlangan paytdan to sudning ayblov hukmi chiqarilgunga qadar o‘tgan muddat yuridik ahamiyatga ega emas va, shu sababli, mazkur jazolarni tayinlashda hisobga olinmaydi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosi tayinlanayotganda, sud aybdorning ushbu unvon va mukofotlar bilan bog‘liq nafaqa hamda boshqa moddiy to‘lovlardan mahrum bo‘lishini e‘tiborga olishi lozim. Ushbu jazo turi jinoiy jazolar tizimida doimiy xususiyatga ega bo‘lgani sababli, aybdor mazkur unvon yoki mukofot asosida to‘lanadigan moddiy imtiyozlardan umrbod, ya‘ni butun hayoti davomida mahrum etiladi.

Shu bilan birga, sud hukmi yuqori instansiya tomonidan to‘liq bekor qilingan hollar bundan mustasno bo‘lib, bunday holatda aybdorga ilgari berilgan unvon, mukofot va ular bilan bog‘liq moddiy ta‘minot huquqi qaytariladi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, sud hukmi kuchga kirgunga qadar aybdor tomonidan olingan harbiy yoki maxsus unvon, mansab darajasi va davlat mukofotlari bilan bog‘liq moddiy to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi byudjetiga qaytarilmaydi. Bu esa sud tomonidan ushbu jazo turini tayinlashda aybdorning shaxsiy va oilaviy moddiy ahvolini, ayniqsa uning qaramog‘idagi shaxslarning moliyaviy farovonligini inobatga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, sud jazoni belgilash jarayonida nafaqat jinoyatning og‘irligini va aybdorning shaxsini, balki uning oilasi va qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasiz qolmasligini ham hisobga olishi lozim.

Yuqorida aytilganidek, sud harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosini tayinlashda uni asosiy jazoga qo‘shmasdan mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega emas. Ushbu qo‘shimcha jazo turi faqat asosiy jazo bilan birga qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, u mustaqil ravishda ijro etiladi va asosiy jazoning ijro muddati bilan bog‘liq emas. Shu sababli, sud jazoni belgilashda ushbu jihatlarni inobatga olishi shart. Lekin ayirim vaqtlari mazkur qo‘shimcha jazo, shartli hukm asosida tayinlangan asosiy jazoga ham qo‘shilib tayinlanishi mumkin. Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida"gi 1-sonli qarorining 31-bandining 1-xatboshisi va 32-bandiga asosan, shartli hukm qilishda qo‘shimcha jazolar ham qo‘llanilishi mumkin va ular real tarzda ijroga qaratiladi, bu haqda hukmning qaror qismida alohida ko‘rsatilishi lozim.

Bundan tashqari, mazkur qarorda shartli hukm qo‘llanilgan taqdirda, sud tegishli harbiy yoki maxsus unvon yoki davlat mukofotlarini saqlab qolishi mumkin emasligi sabablarini ochiq va aniq asoslab berishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan[7, 507-b]. Bu esa sud tomonidan qabul qilingan qarorning asoslanganligi va adolatligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, sud shartli hukm tayinlangan holda harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosini belgilayotgan bo‘lsa, ushbu choraning zarurligini batafsil asoslab berishi lozim va u alohida ijro etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerak, jinoyat qonunchiligida harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazo turi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu jazoning asosiy maqsadi nafaqat aybdorga nisbatan adolatli choralar ko‘rish, balki ijtimoiy adolatni tiklash, jamiyat manfaatlarini, davlat xizmatining nufuzini himoya qilish va davlat mukofotlarining obro‘cini saqlashdan iborat. Sudlar ushbu jazoni tayinlashda shaxsning ijtimoiy mavqecini, huquqiy holatini va jinoyatning og‘irligini chuqur tahlil qilishi, shuningdek, jazoning inson huquqlari va huquqiy adolat tamoyillariga mos kelishini ta’minlashi zarur.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Q.Rozimova. Bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash. Monografiya. – Toshkent: TDYuU, 2020. – B.132. (Q.Rozimova. Sentencing for multiple crimes and multiple sentences. Monograph. - Тошкент: ЎЗМУ, 2020. - P.132.)
2. M.Usmonaliyev. Jazo tayinlash. – T.: TDYUI, 2003. – 92 b. (2. M. Usmonaliyev. Sentencing. - T.: TDYUI, 2003. - 92 p.)
3. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм\ М.Рустамбаев. – Тошкент: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. -784б. (Rustambayev M.X. Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General Part M. Rustambaev. - Tashkent: "Yuridik adabiyotlar publish," 2021. - 784p)
4. Наумов А.В. Российское уголовное право. Общая часть: Курс лекций / А. В. Наумов. – Москва: Бек, 1996. – 550 с.(Naumov A.V. Russian Criminal Law. General Part: Course of Lectures / A. V. Naumov. - Тошкент, 2016. - 550 p).
5. О‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari: “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida” 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-1455976> (Resolutions of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan: Resolution No. 1 of February 3, 2006, "On the Practice of Sentencing by Courts." <https://lex.uz/docs/-1455976>)
6. Магомедов Г. Б. Особенности назначения дополнительных видов наказания //Журнал юридических исследований Учредители: Прудников Владимир Михайлович. – 2022. – Т. 7. – №. 1. – С. 76-81. (Magomedov G. B. Features of appointment of additional types of punishment //Journal of legal studies Founders: Prudnikov Vladimir Mikhailovich. - 2022. - Vol. 7. - No. 1. - P. 76-81)
7. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм\ М.Рустамбаев. – Тошкент: «Адолат», 2016. -608 б.(Rustambayev M.Kh. Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General Part M. Rustambaev. - Тошкент: «Адолат», 2016. - 608 p.)
8. Khamidov, N. (2018). Criminal-legal aspects of the drug abuse in some countries and imposed approaches against it. International Journal of Legal Studies (IJOLS), 4(2), 177-183.
9. Saparovna, N. S., Anvarovich, O. A., Khamidov, N., Sunnatov, V., & Toshev, O. (2024). Issues of Criminal Liability for Suicide. Journal of Ecohumanism, 3(8), 11559-11568.
10. Saparovna, N. S., Allanova, A., Khamidov, N., Sunnatov, V., Toshev, O., & Gazibekov, K. (2025). Criminal Law Description of Domestic Violence. Journal of Ecohumanism, 4(2), 2004-2016.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000